

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI VA BOSHLANG'ICH TA'LIMI BILAN UZVIYLIKINI TA'MINLASH

ЧЛЕНСТВО В ДОШКОЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ И НАЧАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ
PROVIDING MEMBERSHIP WITH PRESCHOOL EDUCATIONAL
INSTITUTIONS AND PRIMARY EDUCATION

Usmanova M.S.

JDPI, katta o'qituvchi

Аннотация: Ushbu maqolada yurtimiz farzandlarini kamol topishiga maktabgacha ta'lim tashkilotlarning sifati, ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish to'g'risidagi fikrlar berilgan.

Калит so'zlar: moddiy-texnika baza, ta'lim-tarbiya jarayoni, zamonaviy ta'lim, intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы качества дошкольного образования, дальнейшего совершенствования системы образования и воспитания, укрепления материально-технической базы, расширения сети дошкольных образовательных учреждений, современных образовательных программ и образовательного процесса. создание условий для полноценного интеллектуального, нравственного, эстетического и физического развития детей.

Ключевые слова: материально-техническая база, учебный процесс, современное образование, интеллектуальное, нравственное, эстетическое и физическое развитие.

Annotation: This article focuses on the quality of preschool education, further improving the system of education and upbringing, strengthening the material and technical base, expanding the network of preschool educational

institutions, modern educational programs and the educational process. ideas on the application of technology, the creation of conditions for the full intellectual, moral, aesthetic and physical development of children.

Keywords: material and technical base, educational process, modern education, intellectual, moral, aesthetic and physical development.

Kirish. Maktabgacha ta'lim ostonasiga ilk qadam qo'yayotgan va endigina o'z menini anglay boshlagan bolalar dunyoni yanada yorqin va go'zal ranglarda taniy boshlaydi. Negaki, uydagi muhit qanday bo'lishidan qat'iy nazar, maktabgacha ta'lim tashkilotining o'rni beqiyos. Aynan shu pog'onadan boshlab yurtimiz farzandlarini kamol topishiga maktabgacha ta'lim tashkilotlarning sifati, ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "2017 — 2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" boshlang'ich ta'limdagi o'quvchining o'qish sifati, bevosita, maktabgacha ta'limga bog'liq.

Natija va mulohazalar .Yurtimiz kelajagi bo'lmish bolajonlar o'z bog'chalarida chet tillarini o'rganish bilan birgalikda estetik, axloqiy, jismoniy, mehnat va aqliy tarbiya olishlari uchun barcha zamon talablariga javob bera oladigan inovatsion-texnologiyalardan foydalanish barcha muassasalarga tadbiq qilinmoqda. Qarang, shunday muhitda tarbiyalangan bolajonlar maktab tomon yani bilimlar olami sari shaxdam qadamlar bilan tashrif buyurishadi. Bu erda esa bolajonlar jonajon bog'chasida olgan bilimlariga tayanib, maktabda hech qiynalmay, yangi muassasaga va jamoaga moslashish ko'nikma hosil bo'ladi. Negaki, uyda tarbiyalangan bolani maktabdagi o'quv jarayoniga hamda sinf jamoasiga moslashuvi qiyin kechadi.

Prezidentimizning “Maktabgacha ta’lim tizimi tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to’g’risida”gi qaroriga muvofiq bu sohada yangi tizim yaratildi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki uzluksiz ta’limning birinchi pog‘onasi bo‘lgan maktabgacha ta’limdagi jadal rivojlanish boshlang‘ich ta’limda o‘z aksini topadi.

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida» 2018 yil 30 sentabrdagi PQ-3955-son [qaroriga](#) muvofiq, shuningdek, maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sog‘lom, faol, to‘laqonli, jamiyatga moslashgan bola shaxsini shakllantirish, o‘sishida turli nuqsonlari bo‘lgan bolalarni, shuningdek reabilitatsiya qilish va sog‘lomlashtirishga muhtoj bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va integratsiya qilish uchun qulay muhit yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-son [qaroriga](#) muvofiq “Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar to’g’risidagi” qabul qilingan Nizom fikrimiz yaqqol dalilidir. Ushbu Nizomda: Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qisqa muddatli guruhlarining quyidagi turlari faoliyat ko‘rsatadi:

rivojlantirish guruhi;

bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yil majburiy bepul tayyorlov guruhi;

inklyuziv guruh;

kechki, dam olish va bayram kunidagi guruh.

Rivojlantirish guruhi 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun ularni har tomonlama kamol toptirish, tengdoshlari va kattalar davrasiga moslashtirish maqsadida tashkil etiladi. Rivojlantirish guruhi kamida 20 nafar va ko‘pi bilan 30 nafar bola bilan to‘ldiriladi.

Bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yil majburiy bepul tayyorlov guruhi 5-6 yoshdagi bolalar uchun (umumta’lim muassasalariga qabul qilishdan bir yil avval) maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bormaydigan bolalarga maktabgacha ta’lim va tarbiya olishida yordam berish maqsadida, shuningdek, bolalarni umumta’lim

muassasalarida o'qishga tayyorlash va teng imkoniyatlar yaratish maqsadida tashkil etiladi.

Bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yil majburiy bepul tayyorlov guruhi ko'pi bilan 30 nafar bola bilan to'ldiriladi.

Bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yil majburiy bepul tayyorlov guruhi ko'pincha maktabgacha ta'lim tashkilotlari negizida, shuningdek, bo'sh turgan xonalar bo'lsa — umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, «Barkamol avlod» bolalar markazlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, madaniyat markazlari, bolalar musiqa va san'at maktablari negizida tashkil etiladi

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qisqa muddatli guruhlar turiga qarab 7 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinishi mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qonun hujjatlariga muvofiq qisqa muddatli guruhlarining boshqa turlari tashkil etilishi mumkinligi" to'g'risida keng muloxaza qilinib chora tadbirlari aytilib o'tildi.

Demak, fikrimiz so'ngida shuni aytmog'imiz kerakki, boshlang'ich ta'limning sifati yanada yuqori bo'lishida maktabgacha ta'limning o'rni beqiyos ekan. Zero, bu fikrni nafaqat boshlang'ich ta'limga nisbatan balki, inson xayotida maktabgacha ta'limning naqadar o'rni katta ekanligini aytmog'imiz ham ayni haqiqatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "2017 — 2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoevning qarori «Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018 yil 30 sentyabrdagi PQ-3955-son

3. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-son [qaroriga](#) muvofiq "Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar to'g'risidagi" qarori.

4. Maxfuza Usmanova, THE CONCEPT OF EDUCATIONAL PROFESSIONAL COMPETENCE AND ITS YIELD FACTORS , Архив Научных Публикаций JSPI: 2020: Архив №54.